

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA SAMARADORLIGI

Meliqulova Yoqutxon Zapparjonovna

*Namangan viloyati, Mingbuloq tumani, 23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich
sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Hozirgi davr ta’lim jarayoni innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, an’anaviy yondashuvlarga qaraganda samaradorligini oshirib bormoqda. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda interfaol o‘qitish metodlari, STEAM yondashuvi, CLIL, gamifikatsiya va raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Pedagogik innovatsiyalar ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Maqolaning asosiy maqsadi – innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, STEAM, CLIL, gamifikatsiya, raqamli texnologiyalar.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim – inson ma’naviy va intellektual shakllanishining birinchi bosqichi. Bu bosqichda bolalarning bilimga bo‘lgan qiziqishi uyg‘onadi, hayotga tayyorgarlik ko‘riladi. Bu davrda o‘quvchilar o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni o‘rganadilar va dunyoni anglashni boshlaydilar.

Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasi – bolalarga o‘qish, yozish, matematikani o‘rgatish bilan birga ularning fikrlash doirasini kengaytirishdir. Tadqiqotlarga ko‘ra, 6–10 yosh oralig‘ida inson miyasi eng faol rivojlanish bosqichida bo‘ladi. Ushbu davrda bola qanday ta’lim olsa, uning kelgusidagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan shunga bog‘liq bo‘ladi. Shu tufayli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Boshlang‘ich ta’limga katta e’tibor qaratib, ta’lim tizimini rivojlantirish, uning sifatini oshirish bo‘yicha bir qancha islohotlarni amalga oshirdi. Yurtboshimizning 2023-yilda qilgan nutqlarining birida: “Bolalarning ertangi taqdiri boshlang‘ich ta’limning qanday tashkil etilishiga bog‘liq. Bizning maqsadimiz – har bir bolaning talantini erta aniqlash va ularni yuksak bilimli insonlar qilib tarbiyalashdir” , - degan so‘zlari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biridir. Boshlang‘ich ta’lim bolaning intellektual, ma’naviy, va jismoniy rivojlanishiga xizmat qilishdir. Bu davrda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi ta’minlanadi.

Buyuk mutafakkir va ilm-ma’rifat homiysi Abu Ali ibn Sino shunday degan: "O‘qitish san’ati – bu o‘quvchini bilim oladigan darajaga yetkazish, unga faqatgina ma’lumot berish emas, balki uni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir." Haqiqatdan ham, bugungi kunda ta’lim jarayonida faqatgina bilim berish yetarli emas, balki o‘quvchini mustaqil o‘rganish va tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish ta’lim samaradorligini oshiradi. Hozirgi kunda STEAM, CLIL, gamifikatsiya, differensial yondashuv va raqamli texnologiyalar kabi zamonaviy pedagogik metodlar o‘quv jarayonini interfaol va ijodiy tarzda olib borishga imkon beradi. Ushbu maqolada shu innovatsion texnologiyalarning mohiyati va ularning boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi ahamiyati keng yoritiladi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li- bu mashg‘ulotlarning Interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir.

Xo‘sh, Interfaol deganimiz asli nima?

„Interfaol“ tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interactive”) ifodalanib, lug‘aviy nuqtai nazardan “inter” – o‘zaro, ikki taraflama, “act” - harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma’nolarni anglatadi.

Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarning bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikda harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.

Interfaollik ta’lim jarayoni ishtirokchilarning bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egalikdir.

Amerikalik psixolog olimlar: R.Karnikau va F. Makelroularning o‘rganishlariga ko‘ra, bola bilimlarni turli darajada saqlab qoladi. Inson miyasi manbani o‘zi o‘qiganida 10%, ma’lumotni eshitganida 20%, sodir bo‘lgan voqea-hodisani o‘zi ko‘rganida 30%, sodir bo‘lgan voqea-hodisani ko‘rib, u haqida ma’lumotlarni eshitganida 50%, ma’lumotlarni o‘zi so‘zlaganida 80%, o‘zlashtirilgan bilimlarni o‘z faoliyatida tatbiq etganida 90% hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega. Interfaol ta’limning asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Interfaol metodlar o‘quv jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning darsda ishtirokini ta’minlash va mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun qo‘llaniladi. Bu metodlarning asosiy maqsadi – bilimni faqat eshitish va qayta aytib berish emas, balki uni amaliyotda qo‘llash va chuqur tushunishni ta’minlashdir. Shuningdek, interfaol metodlar zamonaviy ta’lim talablari bilan hamohang bo‘lib, o‘quvchilarni zamonaviy muammolarni hal qilishga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga tayyorlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘qitish jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etib, ularning qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi.

An’anaviy o‘qitish usullari, odatda, yodlash va takrorlashga asoslangan bo‘lsa, innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilar o‘zlari mustaqil bilim olishga undaladi. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va kelajakda fanlarni chuqur o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Keling, endi STEAM metodining boshlang‘ich ta’limga ta’siri haqida so‘z yuritamiz.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) – fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani o‘z ichiga olgan ta’lim yondashuvi bo‘lib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Misol sifatida "Ko‘prik yasash" loyihasini keltirish mumkin. Ushbu loyiha davomida o‘quvchilar oddiy materiallardan mustahkam ko‘prik yaratishadi. Bu jarayonda:

Matematika: o‘lchamlarni hisoblash va qonuniyatlarini qo‘llash;

Muhandislik: bardoshli tuzilma yaratish uchun texnik bilimlardan foydalanish;

San’at: estetik jihatdan chiroyli ko‘prik yaratish;

Ilmiy tajriba: ko‘priknig yuk ko‘tarish qobiliyatini sinab ko‘rish.

Bu kabi loyihalar orqali o‘quvchilar fanlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

CLIL metodi qanday?

CLIL (Content and Language Integrated Learning) – fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish metodikasi bo‘lib, ayniqsa xorijiy tillarni o‘rganishda samarali usul hisoblanadi.

Misol sifatida "Tabiatshunoslik va Ingliz tili" fanlarini integratsiyalash orqali o‘quvchilarga hayvonlar hayoti haqida ingliz tilida tushuntirish mumkin. Bu esa:

O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshiradi;

Ularni fanlararo fikrlashga o‘rgatadi;

Yangi tilni amaliyotda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Masalalarni hal qilish: O‘quvchilarga turli matematik misol yoki masalalarni, shuningdek, murakkab puzzle o‘yinlarini berish. Ular masalani hal qilish uchun ingliz tilida muhokama qilishlari va javoblarini topishlari kerak. Bu metod til va fanlarni birlashtirib, o‘quvchilarni fikr yuritishga undaydi.

Gamifikatsiya – ta’lim jarayonini o‘yin orqali tashkil etishdir.

Gamifikatsiya – o‘quv jarayonini o‘yin elementlari bilan boyitish bo‘lib, dars jarayoniga qiziqish uyg‘otadi. Masalan: "Matematika qahramonlari": har bir o‘quvchi matematika misollarini yechib, ball to‘playdi va "Matematika qahramoni" unvonini oladi.

“1 daqiqa” metodi ushbu metod boshlang‘ich sinflardagi deyarli barcha fanlardan qo‘llanilsa bo‘ladi.

Foydalanish sharti: O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zlarining mashq daftarlariga (individualniy) yoki A4 formatdagi oq listga (kichik guruhlarda) yangi mavzu yuzasidan mustahkamlash yoki uyga vazifani tekshirish uchun o‘tilga mavzulardan

o‘quvchilarning yodida qolgan ma’lumotlarni yozishni topshiriq qilib beradi. Metodning ahamiyatli jihati shundaki, o‘quvchilar bu ma’lumotlarni

tezkorlik bilan 1 daqiqa vaqt mobaynida to‘g‘ri va xatosiz yozib berishlari kerak bo‘ladi. Shart yakunida eng ko‘p va xatosiz ma’lumot yozgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

“Aqliy hujum” ushbu metod boshlang‘ich sinflardagi deyarli barcha fanlardan qo‘llanilsa bo‘ladi.

Foydalanish sharti: O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zlarining mashq daftarlariga (individualniy) yoki A4 formatdagi oq listga (kichik guruhlarda) yangi mavzu yuzasidan mustahkamlash yoki uyga vazifani tekshirish uchun o‘tilgan mavzulardan o‘quvchilarning

yodida qolgan ma’lumotlarni yozishni topshiriq qilib beradi. Metodning ahamiyatli jihati shundaki, o‘quvchilar bu ma’lumotlarni

tezkorlik bilan 1 daqiqa vaqt mobaynida to‘g‘ri va xatosiz yozib berishlari kerak bo‘ladi. Shart yakunida eng ko‘p va xatosiz ma’lumot yozgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

“To‘rtinchisi ortiqcha” bu metod bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchilarning fikrlash, qiyoslab o‘rganish qobiliyatlarini o‘stirishg yordam beradi.

Foydalanish sharti: boshlang‘ich sinflridagi barcha fanlarda foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi jadval asosida so‘zlar yozib tayyorlab kelgan bo‘lishi zarur.

O‘quvchilarning qo‘llariga jadval tarqatiladi. Undagi har bir bo‘laklarda 4 tadan so‘z mavjud bo‘ladi. 3 ta so‘z bir tur doirasida 1 ta so‘z ya’ni to‘rtinchisi boshqa ma’noda keladi. O‘quvchilardan talab qilinadigan narsa, ortiqcha so‘zni topib, ustiga chiziqcha tortishdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda ta’lim tizimi global miqyosda tezkor

o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi – o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularga tanqidiy va mustaqil fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beruvchi muhit yaratishdir. Bugungi ta’lim jarayoni texnologiyalar va innovatsiyalar bilan boyitilgan bo‘lib, raqamli resurslar, masofaviy ta’lim, robototexnika va boshqa zamonaviy vositalar o‘quv jarayonini sezilarli darajada osonlashtirdi. Shuningdek, interfaol metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, guruhda ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish va bilimlarni qiziqarli shaklda o‘zlashtirish imkonini yaratmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiyalar boshlang‘ich ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada STEAM, CLIL, gamifikatsiya va boshqa innovatsion metodlarning boshlang‘ich sinflarda qo‘llanishi natijasida:

O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlanadi;

Ta’lim jarayoni yanada qiziqarli va interfaol bo‘ladi;

O‘quvchilarning motivatsiyasi oshib, o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.

Kelajakda boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni kengroq qo‘llash va pedagoglarni ushbu yo‘nalishda doimiy malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Metodik qo‘llanma. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Inogomova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti, 2012. - 122-bet.
2. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. metodik qo‘llanma. D. Ro‘ziyeva, M. Usmonboyeva, Z. Holiqova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2013. - 136 bet

3. "STEAM Education: A 21st Century Approach" – International Journal of Education Research.
4. www.stem.org.uk – STEAM metodikasi haqida xalqaro ta’lim portali.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qarorlari.